O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muhammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeimedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
<i>Raximov Xasan Shukurjonovich</i>	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
<i>Kurolov Maksud Obitovich</i>	
TALIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
<i>Esanova Shohida</i>	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
<i>Хамзина Динара Рашатовна</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
<i>Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich</i>	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
<i>Masharipova Sevara Bekturdi qizi</i>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	1487
<i>Marimova Indira Rasul qizi</i>	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODELII.....	1492
<i>Murodov Orif Jumayevich</i>	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
<i>Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna</i>	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
<i>Киличева Ф.Б.</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI VAHOLASH	1507
<i>Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li</i>	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
<i>Маденова Эльмира Нзаматдиновна</i>	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
<i>Мансуров Обид Зайнидинович</i>	
РЕКЛАМА ХИЗМАТЛАРИ BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
<i>Xamrakulov Azamat Baxritdinovich</i>	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
<i>Jalilov Jamshid G'anjionovich</i>	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
<i>To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
<i>Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li</i>	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
<i>Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna</i>	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i>	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI.....	1554
<i>Xashimova Salima Nigmatullayevna</i>	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruz Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivoxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI	1657
Nizamov Xusniddin Fazliddinovich	



SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	1663
Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHLTLARI.....	1670
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR.....	1674
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ.....	1678
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOBLAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHLTLARI.....	1684
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1690
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ВАЛЮТНЫМИ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	1695
Тугалов Бобур Қаршибой угли	
DYUZDO SPORTIDA JAROHATLAR PROFILAKTIKASI VA TIBBIY TIKLANISH USULLARINING SAMARADORLIGI.....	1699
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
HAVO TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVCHI TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA UNDAGI MUOMMOLAR.....	1703
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
HUDUDIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION SIYOSAT MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI MODEL I.....	1709
G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА.....	1716
Юлчиев Ойбек Улуғбек ўгли	
TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA XORIJIY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH YO'LLARI.....	1723
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	1731
Isroilov Dilshodbek Rustamovich, Isroilova Odina Rustambek qizi	
O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY RESURSLAR VA MANBALAR.....	1737
Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna	
ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI, ISROFI VA YO'QOTISHLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI.....	1743
Nazarova Gulbahor Raxmonkulovna	
KORXONA FOYDASI VA UNING RAQOBATBARDOSH NARX SIYOSATINI MAKSIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	1748
Axmadjonov Murodjon Axadjon o'g'li	



KORXONA FOYDASI VA UNING RAQOBATBARDOSH NARX SIYOSATINI MAKSIMALLASHTIRISH YO'LLARI

Axmadjonov Murodjon Axadjon o'g'li

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti,
Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs magisteri,
Email: axmadjonovm1@gmail.com
ORCID: 0009-0000-6951-0816

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda korxonada foydasini oshirishda raqobatbardosh narx siyosatining ahamiyati tahlil qilinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar narx belgilash strategiyasini shakllantirishda talab va taklif omillari, iste'molchilar xulqi hamda raqobatchilar faoliyatini chuqur o'rganishi zarur. Tadqiqotda dinamik narxlash, qiymatga yo'naltirilgan narx siyosati va xarajatlarni kamaytirish orqali raqobat ustunligini shakllantirish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, xalqaro tajribalar misolida korxonalarining foydani maksimallashtirishga erishish yo'llari va amaliy takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: Korxonada foydasi, narx siyosati, raqobatbardoshlik, marketing strategiyasi, dinamik narxlash, bozorda ustunlik, foydani maksimallashtirish.

Abstract. This research analyzes the significance of competitive pricing strategies in maximizing corporate profitability. In a market economy, companies must formulate pricing strategies by considering supply-demand factors, consumer behavior and competitor actions. The study examines mechanisms of achieving competitive advantage through dynamic pricing, value-based pricing and cost leadership. Additionally, international case studies are used to highlight effective approaches that enhance profit maximization, along with practical recommendations for sustainable market success.

Key words: Corporate profit, pricing strategy, competitiveness, marketing strategy, dynamic pricing, market advantage, profit maximization.

Аннотация. В данной научной работе рассматривается значение конкурентной ценовой политики в процессе максимизации прибыли предприятия. В условиях рыночной экономики предприятия должны формировать ценовые стратегии, учитывая факторы спроса и предложения, поведение потребителей и деятельность конкурентов. В исследовании раскрываются механизмы формирования конкурентных преимуществ на основе динамического ценообразования, ценности продукта и снижения издержек. Также представлены международные примеры и практические рекомендации, направленные на повышение прибыльности и устойчивого развития на рынке.

Ключевые слова: Прибыль предприятия, ценовая политика, конкурентоспособность, маркетинговая стратегия, динамическое ценообразование, рыночное преимущество, максимизация прибыли.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning asosiy maqsadi foyda olish va uni maksimal darajaga yetkazishdan iborat. Foydaning oshirilishi esa to'g'ridan-to'g'ri narx siyosatining qanchalik oqilona shakllantirilganiga bog'liq. Raqobat kuchayib borayotgan global iqtisodiyotda narx siyosati faqat daromad manbai sifatida emas, balki korxonaning uzoq muddatli strategik ustunligini ta'minlovchi omil sifatida qaraladi. Shu sababli, raqobatbardosh narxlash strategiyalarini ishlab chiqish va ularni bozor sharoitlariga moslashtirish korxonalar uchun muhim vazifaga aylanmoqda.



Narxlash strategiyasi foyda maksimalashtirishning asosi bo'lib, u talab va taklif, xarajatlar tuzilmasi, raqobatchilar siyosati hamda iste'molchilarning xulq-atvoriga bog'liq murakkab iqtisodiy jarayonni o'z ichiga oladi. Andrus (2024) ta'kidlaganidek, narx — bu mahsulotning bozordagi jozibadorligini belgilovchi eng muhim iqtisodiy omildir. Shuningdek, narx korxonaning bozor imijini, iste'molchilarning ishonchini va brendning qadriyatini shakllantiruvchi mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, narx siyosatini raqobatchilarga nisbatan to'g'ri belgilash korxonada foydasini ko'paytirishning samarali vositasidir.

Hozirgi davrda raqobatning kuchayishi, texnologik o'zgarishlar va iste'molchilarning talabidagi o'zgaruvchanlik korxonalarni yanada moslashuvchan va innovatsion narxlash yondashuvlarini joriy etishga majbur qilmoqda. Masalan, Walmart kompaniyasi "Har kuni past narxlar" tamoyiliga asoslangan xarajatlar bo'yicha yetakchilik strategiyasini qo'llab, raqobatchilarga nisbatan past narxlar orqali bozorda ustunlikka erishgan. Shu bilan birga, kompaniya ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, logistika tizimini takomillashtirish va miqyos iqtisodidan foydalanish orqali foyda marjasini saqlab qolmoqda.

Amazon esa raqobatbardosh narxlashning raqamli modelini namoyon etadi. Kompaniya sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahliliga asoslangan dinamik narxlash tizimini ishlab chiqqan bo'lib, bu tizim real vaqt rejimida talab va taklif o'zgarishlariga mos ravishda narxlarni avtomatik yangilab boradi. Bu yondashuv foydani maksimal darajada oshirish bilan birga, mijozlar sodiqligini mustahkamlash va bozordagi o'zgarishlarga tezkor javob berish imkonini beradi. Amazon Prime a'zolik tizimi esa qiymatga asoslangan narxlash strategiyasining amaliy ifodasidir, chunki foydalanuvchilar yuqori xizmat sifati va qo'shimcha imkoniyatlar evaziga narxni qabul qiladilar.

Korxonada foydasini oshirish jarayonida nafaqat narx darajasini, balki uning iste'molchiga ta'sirini ham tahlil qilish zarur. Iste'molchilar psixologiyasi narxlash qarorlarining samaradorligida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, "9.99" yoki "999 ming so'm" kabi psixologik narxlar inson ongida mahsulot arzonroq degan tasavvur uyg'otadi. Shu kabi nozik jihatlarda foydani oshirishda sezilarli iqtisodiy natija berishi mumkin. Narx siyosatini ishlab chiqishda kompaniyalar nafaqat iqtisodiy, balki psixologik va ijtimoiy omillarni ham hisobga olishlari zarur.

Raqobatbardosh narx siyosati iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy inqiroz yoki inflyatsiya davrida korxonalar xarajatlarni qisqartirish, aksiyalar va chegirmalar joriy etish orqali talabni rag'batlantirishga harakat qiladi. Masalan, McDonald's iqtisodiy tanazzul davrlarida "qiymatli menyu" strategiyasini qo'llab, arzon, ammo sifatli mahsulot taklifi orqali mijozlar oqimini saqlab qolgan. Bu yondashuv foydani kamaytirmasdan, iste'molchilarning xarid qobiliyatiga moslashish imkonini yaratadi.

Raqobatbardosh narxlash siyosatini ishlab chiqishda qiymat va xarajat o'rtasidagi muvozanat muhim ahamiyatga ega. Yuwono va Ellitan (2025) qayd etganidek, iste'molchilar qaror qabul qilishda faqat narxga emas, balki mahsulotning idrok etilgan qiymatiga e'tibor qaratadi. Shu sababli, kompaniyalar "arzon, ammo sifatli" yoki "qimmat, ammo qadrlil" pozitsiyalarni to'g'ri shakllantirish orqali foydani maksimalashtirish imkoniga ega bo'ladi. Masalan, Apple yuqori narx siyosati orqali o'z brendining eksklyuzivligini ta'minlagan va yuqori foyda marjasiga erishgan.

Shuningdek, marketing va kommunikatsiya strategiyalari raqobatbardosh narxlash siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Narxni to'g'ri belgilash bilan bir qatorda uni iste'molchiga qanday taqdim etish masalasi ham muhimdir. Bahorka, Ustik va Kvasova (2024) fikricha, narx siyosatini to'g'ri kommunikatsiya qilish iste'molchi idroki va sodiqligini kuchaytiradi. Shuning uchun kompaniyalar narxni nafaqat iqtisodiy ko'rsatkich sifatida, balki brend imiji va ishonch ramzi sifatida ham targ'ib qilishlari zarur.

Umuman olganda, foyda maksimalashtirish korxonaning strategik maqsadlaridan biri bo'lib, u faqat narxni oshirish yoki xarajatlarni kamaytirish bilan emas, balki iste'molchi qadriyatlarini va bozor tendensiyalariga mos raqobatbardosh narxlash siyosatini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Shu jihatdan, ushbu maqola korxonada foydasini oshirish va barqaror raqobatbardoshlikka erishishda narx siyosatining strategik ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqobatbardosh narxlash siyosati va korxonada foydasini maksimalashtirish masalalari iqtisodiy nazariya va amaliy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Mazkur yo'nalishda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlar korxonada narx strategiyasining shakllanishida muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Andrus (2024) o'z tadqiqotida raqobatbardosh narxlash strategiyalarini bozor sharoitlariga moslashtirishning zamonaviy yo'llarini tahlil qilib, narxni iste'molchi ongida shakllanadigan qiymat idroki bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, narxni faqat xarajatlar asosida belgilash korxonaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlay olmaydi; buning o'rniga iste'molchi ehtiyojlari va brend qadriyatlariga asoslangan yondashuv samaraliroq natija beradi. Bu fikr narxni marketing kommunikatsiyasining asosiy elementi sifatida talqin etuvchi zamonaviy marketing nazariyalari bilan hamohangdir.



Jiang, Xu va Li (2024) o'zlarining ilmiy izlanishlarida yashil iqtisodiyot sharoitida narxlash strategiyalarini tahlil qilib, ekologik toza mahsulotlarning qiymati nafaqat ishlab chiqarish xarajatlari, balki ularning barqarorlik darajasi bilan ham belgilanadi degan xulosaga kelganlar. Ularning fikricha, past uglerodli ta'minot zanjirida raqobatbardosh narxlash mexanizmlari korxonalariga ekologik imijni mustahkamlash bilan bir qatorda foydani ham oshirish imkonini beradi.

Schill va Nixon (2024) esa xalqaro bozorlarda narxlash strategiyasining yettita asosiy tamoyilini ("7C modeli" — competition, cost, customer, communication, channel, change va culture) ishlab chiqqan bo'lib, ular narx siyosatini global raqobat, madaniy farqlar va bozor dinamikasi bilan uyg'unlashtirishni taklif etadi. Ularning fikricha, xalqaro raqobatda korxonalar muvaffaqiyati ko'p jihatdan narx va brend kommunikatsiyasining muvofiqligiga bog'liq.

Tomashuk, Dzhezdzhula va Koval (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda marketing faoliyatining to'g'ri tashkil etilishi narxlash strategiyalarining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan. Ular marketing faoliyatini tizimli tahlil qilish orqali narx siyosatining foydalilik darajasi, iste'molchi talabi va reklama samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaganlar.

Li va Chen (2024) elektron tijorat sohasidagi narxlash siyosatini o'rganib, chegirmali narxlar iste'molchilarning xaridga bo'lgan strategik yondashuvini o'zgartirishini isbotlagan. Ularning fikricha, dinamik narxlash mexanizmi raqamli savdo platformalarida foydani maksimalashtirish uchun eng mos vositadir. Bu model ayniqsa Amazon, Alibaba kabi yirik kompaniyalarning tajribasida o'z tasdig'ini topgan.

Sun, Liu va Zhang (2025) o'yin nazariyasi asosida narx strategiyalarini tahlil qilib, davlat aralashuvi mavjud sharoitda ishlab chiqaruvchi va chakana sotuvchilar o'rtasidagi foyda taqsimoti modelini ishlab chiqqanlar. Ularning fikricha, hukumat tomonidan rag'batlantiruvchi siyosatlar (soliq imtiyozlari, subsidiyalar va ekologik talablar) korxonalarini narxni strategik ravishda moslashtirishga undaydi.

Barman va hamkorlari (2024) esa ta'minot zanjiri nazariyasi asosida risk va noaniqlik sharoitida narxlash strategiyalarining moslashuvchanligini tahlil qilgan. Ular "dual-channel" logistika modeli orqali narxni differensial shaklda belgilash korxonaga yuqori foyda olish imkonini beradi degan xulosaga kelgan.

Mahalliy iqtisodchilar orasida ham narx siyosati va foyda maksimalashtirish masalalari e'tiborga loyiq o'rganilgan. Masalan, Abdullaev M. (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekiston sharoitida raqobatbardosh narxlashning asosiy omillari — ishlab chiqarish tannarxi, soliq yukining hajmi va bozor talabining elastikligi ekani ta'kidlangan. Xuddi shuningdek, Mavlonov N. (2024) milliy bozorning raqobat muhitini chuqur tahlil qilib, kichik va o'rta korxonalarda qiymatga asoslangan narxlash mexanizmlarining joriy etilishi foyda barqarorligini oshirishga xizmat qilishini asoslab bergan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, korxonalar foydasini maksimalashtirishda narx siyosati nafaqat iqtisodiy, balki psixologik, marketing va institutsional omillar bilan uzviy bog'liqdir. Raqobatbardosh narxlash samaradorligi qiymat idroki, iste'molchi ehtiyojlari va bozor o'zgarishlariga tezkor javob berish qobiliyatiga tayanadi. Shu bois, ilgari o'rganilgan nazariy va empirik tadqiqotlar asosida korxonalar uchun milliy sharoitga mos narxlash mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati dolzarb masala sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda korxonalar foydasini maksimalashtirish va raqobatbardosh narxlash strategiyalarining o'zaro bog'liqligini aniqlash maqsadida bir necha ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Birinchidan, deduktiv va induktiv tahlil usullari yordamida narxlash nazariyasi bo'yicha ilgari yaratilgan ilmiy qarashlar umumlashtirildi hamda ularning amaliyotga tatbiqi o'rganildi. Ikkinchidan, taqqoslama tahlil usuli orqali Walmart, Amazon, Apple va McDonald's kompaniyalari tajribasi solishtirilib, ularning narx siyosati foydani oshirishdagi o'rni baholandi.

Shuningdek, tadqiqotda keys-stadi (case study) usuli qo'llanilib, har bir kompaniya misolida narx shakllanishi, iste'molchi xulq-atvori va foyda dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. Empirik ma'lumotlar sifatida 2022–2025-yillarga oid yillik hisobotlar, MDPI, Springer va PLOS ONE kabi ilmiy bazalardagi maqolalar tahlil qilindi.


Tadqiqot metodologiyasi doirasida SWOT-tahlil orqali raqobatbardosh narxlashning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, imkoniyatlar hamda tahdidlar baholandi. Ushbu ko'p omilli yondashuv korxonaning foyda darajasiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni kompleks o'rganish, shuningdek, optimal narx strategiyasini ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda bozor mexanizmlarining rivojlanishi, raqobat muhitining chuqurlashuvi va narxlarni erkinlashtirish jarayonlari korxonalarining foydani oshirish strategiyalariga



yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Raqobatbardosh narxlash siyosati ushbu jarayonda eng muhim instrumentlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston korxonalarida foyda maksimalashtirish imkoniyatlari uchta asosiy yo'nalish bilan belgilanadi: mahalliy bozor sharoitlari, kichik biznesda narx strategiyasini qo'llash, hamda soliq va rag'batlantiruvchi omillar.




1-rasm. O'zbekiston korxonalarida foydani oshirish imkoniyatlari

O'zbekiston iqtisodiyotida mahalliy bozor sharoitlarini chuqur tahlil qilish korxonada foydasi dinamikasini shakllantiruvchi eng muhim bosqichlardan biridir. Mahalliy talab hajmi, aholining real daromadlari, iste'mol xulq-atvori va raqobatchilar soni foyda darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bozor sharoitlarini aniqlash orqali korxonalar narx siyosatini moslashtiradi, mahsulot portfelini diversifikatsiya qiladi va talab elastikligini inobatga olgan holda ishlab chiqarish hajmini optimallashtiradi.

Kichik biznes subyektlari uchun foydani oshirishning muhim sharti — narx strategiyasining moslashuvchanligi. Kichik korxonalarining resurs bazasi cheklangan bo'lgani sababli, ular xarajatlarni optimallashtirish va psixologik narxlash elementlaridan samarali foydalanishi kerak. Masalan, chegirmalar, sodiqlik dasturlari yoki "psixologik narxlar" (masalan, 9 999 so'm, 999 000 so'm kabi) iste'molchilarda arzonlik tasavvurini uyg'otadi va xarid hajmini oshiradi. Shu bilan birga, kichik biznes uchun davlat tomonidan yaratilgan soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kredit resurslarining kengayishi foyda marjasini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Soliq va rag'batlantiruvchi omillar iqtisodiy samaradorlikni oshirishda o'ziga xos turtki beradi. O'zbekiston Respublikasining Prezident farmonlari va qarorlarida (xususan, PF-60, PQ-5992, PQ-436 kabi hujjatlarda) kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va eksportni kengaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu siyosat korxonalar foydasini oshirishda fiskal yukni kamaytirish, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, ushbu uch yo'nalish — bozor sharoitlari, narx strategiyasi va fiskal omillar — o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanilganda korxonalarining sof foyda ko'rsatkichi o'rtacha 18–25 foizgacha oshishi mumkinligi kuzatilgan. Bu esa mamlakatda ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, bandlikni oshirish va iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.



2-rasm. Raqobatbardosh narx siyosati va uning turlari

Raqobatbardosh narxlash siyosati korxonada foydasining asosiy determinantlaridan biri bo'lib, bozor sharoitlari, xarajat tuzilmasi, talab elastikligi va raqobat darajasiga qarab turli shakllarda namoyon bo'ladi. Tadqiqotda raqobatbardosh narxlashning to'rtta asosiy modeli ajratib ko'rsatildi:

1. Xarajatlarga asoslangan narxlash – mahsulot tannarxi ustiga ma'lum foyda marjasi qo'shish orqali narxni shakllantirishdir. Bu yondashuv ishlab chiqarish barqarorligi yuqori bo'lgan tarmoqlar, jumladan, sanoat va oziq-ovqat ishlab chiqarish sohalari uchun maqbul.

2. Talabga asoslangan narxlash – iste'molchilarning to'lovga tayyorlik darajasi, talab hajmi va mavsumiy o'zgarishlarga mos ravishda narxni belgilashni nazarda tutadi.

3. Raqobatga asoslangan narxlash – bozordagi raqiblar narx siyosatini monitoring qilish asosida shakllantiriladi. Bu yondashuv, ayniqsa, chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohalari keng qo'llaniladi.



4. Dinamik va qiymatga yo'naltirilgan narxlash – zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida real vaqt rejimida narxni o'zgartirish mexanizmini o'z ichiga oladi. Bu model sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlilini birlashtirgan holda talab-taklif nisbatiga mos narx siyosatini shakllantirish imkonini beradi.

Empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida qiymatga asoslangan va dinamik narxlash kombinatsiyasi eng samarali model sifatida namoyon bo'lmoqda. Masalan, "Asaxiy", "Texnomart" va "Goodzone" kabi milliy elektron savdo kompaniyalari bu yondashuvni tatbiq etib, iste'molchilar talabiga moslashtirilgan narxlar orqali foyda marjasini o'rtacha 12–15 foizgacha oshirishga erishgan.

Shuningdek, xalqaro kompaniyalar tajribasi ham raqobatbardosh narxlash strategiyasining universalligini tasdiqlaydi. Walmart xarajatlar bo'yicha yetakchilik strategiyasi orqali "Har kuni past narxlar" tamoyilini joriy etgan bo'lsa, Amazon dinamik narxlash tizimini rivojlantirib, real vaqt ma'lumotlari asosida narxlarni o'zgartiradi. Apple esa yuqori narxlar orqali ekslyuziv brend qadriyatini shakllantirgan. Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, raqobatbardosh narxlashning har bir turi o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lib, ular bozor sharoitlariga qarab kombinatsiyalangan shaklda qo'llanganda eng yuqori natija beradi.

O'zbekiston korxonalarini uchun ham ushbu yondashuvlar moslashtirilgan shaklda qo'llanilishi mumkin. Xususan, raqamli iqtisodiyot sharoitida dinamik narxlash mexanizmlarini joriy etish, iste'molchi xulqini tahlil qiluvchi algoritmlar yaratish va raqobatchilar monitoringi orqali optimal narx diapazonini belgilash foyda maksimallashtirish imkonini beradi. Shu tariqa, foyda va raqobat o'rtasidagi strategik muvozanatni ta'minlash korxonalar uchun barqaror o'sishning kafolatiga aylanadi.

O'zbekiston korxonalarini uchun foydani maksimallashtirishda narxlash strategiyasi asosiy strategik vosita bo'lib xizmat qiladi. Mahalliy bozor sharoitlari, kichik biznes imkoniyatlari va davlat tomonidan berilayotgan fiskal imtiyozlar uyg'un holda qo'llanilganda, korxonalar nafaqat raqobatbardoshligini, balki uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ham ta'minlay oladi. Shu bois, raqobatbardosh narxlash siyosatini ilmiy asosda shakllantirish va uni raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish O'zbekiston korxonalarining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Walmart va Amazon kabi xalqaro kompaniyalar misolida o'rganilgan tahlillar raqobatbardosh narxlash strategiyalarining ko'p qirrali tabiatini yaqqol namoyon etadi. Ushbu kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan narxlash modellarining muvaffaqiyati narx siyosatini bozordagi o'zgaruvchan talab, raqobat darajasi va iste'molchi xulq-atvori bilan uzviy bog'lash zarurligini ko'rsatadi. Raqobatbardosh narxlash nafaqat foydani maksimallashtirish, balki bozor barqarorligini ta'minlash va iste'molchi sadoqatini mustahkamlashning ham muhim omilidir.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, korxonalar uchun samarali narx siyosatini ishlab chiqish jarayoni kompleks yondashuvni talab etadi. Narxni belgilashda nafaqat ishlab chiqarish xarajatlari va marjinal foyda darajasi, balki iste'molchilar tomonidan idrok etiladigan qiymat, psixologik narxlar, raqamli muhitdagi dinamik talab o'zgarishlari ham inobatga olinishi lozim. Bozor kon'yunkturasini chuqur tahlil qilish, talab va taklif nisbatini modellashtirish hamda marketing kommunikatsiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish korxonalarga raqobatda ustunlik beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida foyda maksimallashtirishga qaratilgan narxlash siyosati ishlab chiqishda uch omil hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi:

1. Bozor sharoitlarini doimiy tahlil qilish va monitoring qilish – bu korxonalarga real vaqt rejimida narx strategiyalarini moslashtirish imkonini beradi.

2. Texnologik yechimlarni joriy etish – raqamli savdo tizimlari, sun'iy intellekt asosida narx prognozlash, dinamik narxlash algoritmlaridan foydalanish foyda marjasini oshiradi.

3. Soliq va rag'batlantiruvchi siyosatni optimallashtirish – davlat tomonidan yaratilgan imtiyozlar tizimi kichik va o'rta biznes subyektlari uchun raqobatbardosh narx siyosatini shakllantirish imkonini kuchaytiradi.

Bozor sharoitlari korxonalar tomonidan foydani ko'paytirishga qaratilgan narxlash strategiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Narxlar dinamikasiga raqobat darajasi, iste'molchilar talabining o'zgaruvchanligi, inflyatsiya, resurslar narxi va makroiqtisodiy barqarorlik kabi omillar ta'sir qiladi. Ayniqsa, O'zbekistonning ochiq bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida, narxlash mexanizmlarining raqobatga moslashuvi iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim o'rin tutadi.

Shu jihatdan, korxonalar uchun quyidagi strategik yo'nalishlar tavsiya etiladi:

- narx siyosatini ishlab chiqishda talab elastikligi va iste'molchi segmentatsiyasini inobatga olish;
- raqamli narx boshqaruvi tizimlarini joriy etish orqali real vaqt tahliliga asoslangan dinamik narxlash modelini shakllantirish;
- brend qadriyatiga asoslangan narx siyosatini rivojlantirish, ya'ni narxni faqat iqtisodiy omil sifatida emas, balki ishonch, sifat va imidj belgisi sifatida talqin etish;



• davlat va xususiy sektor hamkorligi doirasida soliq yukini kamaytirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash hamda eksportni rag'batlantirish siyosatini kengaytirish.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, raqobatbardosh narxlash strategiyalarini ilmiy asosda ishlab chiqish va ularni milliy iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirish O'zbekiston korxonalarining rentabelligini oshirish, investitsion jozibadorligini kuchaytirish va xalqaro bozorga integratsiyasini tezlashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, foyda maksimallashtirish strategiyasini narx, sifat va innovatsiya o'rtasidagi muvozanatga asoslangan kompleks yondashuvda shakllantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Andrus, O., 2024. Contemporary pricing strategies: shaping competitive products. Publishing House "Baltija Publishing". <http://www.baltijapublishing.lv/omp/index.php/bp/catalog/download/462/12546/26219-1>
2. Jiang, J., Jiang, S., Xu, G. and Li, J., 2024. Research on pricing strategy and profit-distribution mechanism of green and low-carbon agricultural products' traceability supply chain. Sustainability, 16(5), p.2087. <https://www.mdpi.com/2071-1050/16/5/2087>
3. Schill, R. and Nixon, M., 2024. The seven 'C's of strategic pricing in international markets. Journal of Cultural Marketing Strategy, 8(2), pp.175-191. <https://www.ingentaconnect.com/content/hsp/jcms/2024/00000008/00000002/art00005>
4. Tomashuk, I., Dzhezdzhula, O. and Koval, O., 2024. Organisation of marketing activities in agricultural enterprises. Baltic Journal of Economic Studies, 10(1), pp.222-236. <https://cyberleninka.ru/article/n/organisation-of-marketing-activities-in-agricultural-enterprises>
5. Li, H. and Chen, Z., 2024. How do e-commerce platforms and retailers implement discount pricing policies under consumers are strategic?. Plos one, 19(5), p.e0296654. <https://journals.plos.org/plosone/article?id=10.1371/journal.pone.0296654>
6. Sun, H., Liu, J. and Zhang, L., 2025. Differential game analysis of carbon emission reduction effect and price strategy considering government intervention and manufacturer competition. Managerial and Decision Economics, 46(2), pp.1146-1166. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1002/mde.4425>
7. Wang, L., Hu, Y. and Zhou, Y., 2024. Cross-border commodity pricing strategy optimization via mixed neural network for time series analysis. arXiv preprint arXiv:2408.12115. <https://arxiv.org/abs/2408.12115>
8. Cheng, L., Huang, P., Zhang, M., Yang, R. and Wang, Y., 2025. Optimizing electricity markets through game-theoretical methods: Strategic and policy implications for power purchasing and generation enterprises. Mathematics, 13(3), p.373. <https://www.mdpi.com/2227-7390/13/3/373>
9. Barman, A., Chakraborty, A.K., Sana, S.S. and Banerjee, P., 2024. Pricing strategy and risk-averse flexibility in sustainable supply chain: a dual-channel logistics process under reward contracts and demand uncertainty. Global Journal of Flexible Systems Management, 25(4), pp.733-762. <https://link.springer.com/article/10.1007/s40171-024-00407-x>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>